Ресурсосбережение как ключевой фактор для достижения устойчивого экономического роста в современном мире	846
Ибрагимов Захид Тахирович	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda kichik biznes korxonalarining tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvini kuchaytirish imkoniyatlari	852
Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich	
Yashil moliya tushunchasi, yashil moliyalashtirish dastaklari va usullari	859
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarining kredit portfelini takomillashtirish yo'llari.....	863
Ibdullaeva Ma'rifat To'lqin qizi	
Aholini ro'yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi	868
Annazarova Barno Rustamovna	
Factors for ensuring the sustainable growth of human capital	873
Baxtiyorova Dildora	
Enhancing human development: public investments in human capital, poverty reduction, and social resilience in Uzbekistan	878
Muhammad Eid Balbaa	
SOCIAL MEDIA MARKETING: tarmoqlarda brend imijini yaratish va mijozlar bilan aloqalalarni mustahkamlash.....	884
Egamberdiyev Muzaffar	
Kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar	888
Aymurzaeva Gulnaz Puxarbaevna	
Основные школы экологии в современный период.....	893
Сеитова Лейли Пулатовна	
Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni takomillashtirish	898
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
O'zaro assimetrik pozitsiyalarni o'zgartirish sharoitida innovatsion qo'zg'alish texnikasini taktik qo'llash	903
A.T.Tangriyev	



Sanoat tarmog'ida investitsiya samaradorligini baholash usullari va ularni qo'llash mexanizmlari.....	908
Hojiqulova Feruza Dona qizi	
Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash va monitoringini tashkil etish.....	916
Ochchildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Tijorat banklari barqarorligi reytingiga ta'sir qiluvchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.....	925
N.Q. Xolov	
Geni o'zgartirilgan kartoshka navlarini kuz oyida ekish texnologiyasi va uning amaliy ahamiyati.....	930
Merganov Avazxon Turgunovich, Xamraeva Nafisa Tirkashevna	
Малый бизнес как фактор повышения уровня занятости и доходов населения региона	933
Умирзокова Мухаббат Исматжон кизи	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini oshirishda moliyaviy nazorat va iqtisodiy tahlil.....	937
Nasurova Kamolaxon Ravshanovna	
Mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarining zamonaviy holati: tahlil va muammolar.....	942
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	



МЕХМОНХОНАЛАРДА ОВQATLANTIRISH XIZMATLARINING ZAMONAVIY HOLATI: TAHLIL VA MUAMMOLAR

Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich

Mustaqil izlanuvchi, (PhD)
ORCID: 0009-0008-0651-4754
h.yaxshiyev81@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarining zamonaviy holati tahlil qilinib, mavjud tizimli muammolar va ularning yechim yo'llari yoritilgan. Xususan, xizmatlar sifati, mahsulot yetkazib berish, gigiyena talablariga rioya qilish, mijoz ehtiyojlariga moslashuv kabi jihatlar asosida sohaga doir dolzARB masalalar chuqr ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida sohaga innovatsion yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona xizmati, ovqatlantirish, gastronomiya, xizmat sifati, oziq-ovqat xavfsizligi, mijoz ehtiyoji.

Abstract: This article analyzes the current state of food services in hotels, highlighting systemic challenges and proposing practical solutions. Key aspects such as service quality, food supply logistics, hygiene compliance, and adaptation to customer needs are thoroughly examined. Based on the findings, the paper presents innovative approaches and applicable recommendations for improving food service management in the hospitality sector.

Key words: hotel service, catering, gastronomy, service quality, food safety, customer needs.

Аннотация: В данной статье рассматривается современное состояние питания в гостиницах, выявляются системные проблемы и предлагаются пути их решения. Особое внимание уделено качеству обслуживания, логистике продуктов, санитарным требованиям и адаптации к потребностям клиентов. На основе проведённого анализа даны практические рекомендации по совершенствованию сферы питания в гостиничном бизнесе.

Ключевые слова: гостиничный сервис, питание, гастрономия, качество услуг, безопасность продуктов, потребности клиентов.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm sanoatining jadal rivojlanishi fonida mehmonxona xo'jaligi xizmatlariga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib bormoqda. Mehmonxona infratuzilmasining ajralmas qismi hisoblangan ovqatlantirish xizmatlari esa nafaqat mijozlarning qoniqishini oshirish, balki ularning qayta murojaat qilish ehtimolini shakllantirishda muhim rol o'yinaydi. Zamonaviy mehmonxonalarda taomlanish xizmatlari klassik restoran formatidan tortib, bufet tizimi, xonaga yetkazib berish, milliy va xalqaro oshxonalar tanlovi, sog'lom ovqatlanish kabi ko'plab variantlarni o'z ichiga oladi. Bunday xilma-xillik mehmonxonaning darjasni, joylashuvi, auditoriyasi va marketing strategiyasiga bog'liq holda shakllanadi.

Biroq, zamonaviy mehmonxonalar faoliyatida ovqatlantirish xizmatlari bilan bog'liq muammolar ham mavjud bo'lib, ular ushbu segmentda tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, oshpazlar malakasining yetarli emasligi, yetkazib beruvchilar bilan uzviy aloqalarning zaifligi, oziq-ovqat xavfsizligi standartlariga to'liq amal qilinmasligi, logistika va sanitariya masalalari, shuningdek, mijozlarning gastronomik talablaridagi



o'zgarishlar ushbu xizmat sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, pandemiyadan so'nggi davrda mijozlar orasida individual ovqatlanish, allergenlarga nisbatan sezuvchanlik va ekologik jihatdan barqaror oziq-ovqatlarga talab oshgan.

O'zbekiston turizm infratuzilmasining jadallik bilan rivojlanayotgani, xorijiy va mahalliy sayyoohlar sonining ortib borayotgani, shuningdek, xalqaro mehmonxona tarmoqlarining kirib kelishi ovqatlantirish xizmatlarining zamonaviy holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarining hozirgi holati o'rganiladi, mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda xizmat sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxona sanoatida ovqatlantirish xizmatlari turistlar ehtiyojini qondirishda muhim omil hisoblanadi va bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu xizmatlar sifati, boshqaruvi va zamonaviy tendensiyalarini chuqr yoritadi. Philip Kotler va John Bowen mehmonxona va restoran marketingi sohasida olib borgan tadqiqotlarida xizmatlar sifati, mijozlar ehtiyojini aniqlash va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish strategiyasini markaziy o'ringa qo'yadilar. Ular mehmonlarning ovqatlanishdagi qoniqish darajasi to'g'ridan-to'g'ri brendga sodiqlikni shakllantirishi va xizmatlar ko'lamining kengligi bilan bog'liq ekanligini qayd etganlar.

O'zbekiston kontekstida esa J.T. To'laganov va N.H. Xojayevning mehmonxona biznesi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida ovqatlantirish xizmatlarini rivojlantirishda milliy oshxona elementlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Ularning fikricha, xorijiy mehmonlar orasida milliy taomlar va an'anaviy xizmat turlariga qiziqish ortib bormoqda, ammo bu yo'nalishda professional oshpazlar va sanitariya-me'yoriy standartlarga rioya etish muammolari mavjud.

Frantsuz tadqiqotchisi Alain Ducasse o'z amaliyoti va tahliliy maqolalarida gastronomik xizmatlarni mehmonxona sohasining strategik qismiga aylantirishni taklif etadi. U oziq-ovqat sifati, menu innovatsiyalari, sog'lom ovqatlanish tamoyillarining joriy etilishi va ekologik barqarorlik masalalariga e'tibor qaratgan. Shuningdek, Annika Hellström tomonidan Yevropa Ittifoqi doirasida o'tkazilgan mehmonxonalarda ovqatlanish sifati monitoringi bo'yicha tadqiqotda oziq-ovqatning kelib chiqish manbai, allergenlar bo'yicha ogohlantirishlar va organik sertifikatlangan mahsulotlardan foydalanish tendensiyalari chuqr yoritilgan.

Rossiyalik olima L.S. Volkova mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini rejalashtirish va optimallashtirishda logistika jarayonlarining samarali yo'lga qo'yilishi, yetkazib beruvchilar bilan uzviy aloqa va mahalliy resurslardan foydalangan holda xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. U mehmonxona darajasiga qarab ovqatlanish tizimlarining farq qilishi – ya'ni «shved stoli», «a-la kart» yoki «set menu» formatlari bilan mijozlar segmentatsiyasi o'tasidagi bog'liqlikka alohida urg'u bergen.

Amerikalik olima Barbara Alman mehmonxona xizmatlarida xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar bilan kommunikatsiya madaniyati haqida so'z yuritar ekan, zamonaviy iste'molchilar yuqori texnologiyalarga asoslangan, lekin insoniy omilni inkor etmaydigan xizmat modelini afzal ko'rishini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida mijozlarning individual ehtiyojlariga asoslangan menu takliflari va tezkor yetkazib berish tizimlari raqobatbardoshlikning kaliti sifatida ko'rsatiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida turizmn rivojlantirishga qaratilgan davlat strategiyalari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmn jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son¹ Farmoni doirasida mehmonxona infratuzilmasini, shu jumladan, ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish masalalari ham qayd etilgan. Bu holat milliy tadqiqotlarning xalqaro yo'nalishlar bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridaq adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, zamonaviy mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarining rivojlanishi kompleks yondashuvni talab qilishi, bunda nafaqat taom sifati, balki mijozlar ehtiyojlarini tushunish, servis innovatsiyalari va ekologik javobgarlik kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan mahalliy va xalqaro mehmonxonalarining ovqatlantirish xizmatlari bo'yicha rasmiy hisobotlari, soha mutaxassislari bilan suhbatlar, shuningdek, sayyoohlarning onlayn fikrmulohazalari asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili va taqqoslash usuli yordamida tizimlashtirilib, mavjud muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari aniqlab chiqildi.

¹ <https://lex.uz/docs/-4143188>



TAHLIL VA NATIJALAR

Mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarining zamonaviy holati turizm sohasidagi umumiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda innovatsion yondashuv, texnologik taraqqiyot va mijozlar ehtiyojining xilma-xilligini hisobga olgan holda xizmatlar spektri kengayib bormoqda. Hozirgi davrda ko'plab mehmonxonalar faqatgina yotoq joyi emas, balki to'liq dam olish va qulaylikni ta'minlovchi ko'p funksiyali markazga aylanib, ovqatlantirish xizmatlarini strategik ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirmoqda. Bunda restoranlar, kafe, bar, xonaga yetkazib beriladigan taomlar, dietik menyular va milliy hamda xalqaro oshxonalarни birlashtirgan xizmat turlari joriy etilmoqda. Zamonaviy mehmonxona mijozining talab va kutgan umidi odatdagи standartlardan anche yuqori bo'lib, nafaqat taom sifati, balki xizmat ko'rsatish madaniyat, gigiyena, texnologik uskunalar, ekologik yondashuv va shaxsiylashtirilgan menu kabi omillar asosiy mezon sifatida qaralmoqda.

Ayni paytda, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ovqatlantirish xizmatlari sohasida qator tizimli muammolar mavjud. Birinchidan, professional oshpazlar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va menejerlar tayyorlashdagi bo'shlqlar haligacha dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Taom tayyorlashdagi zamonaviy texnologiyalar, ekologik mahsulotlar bilan ishslash, allergenlarni hisobga olgan menu tuzish, mijoz psixologiyasi bilan ishslash kabi ko'nikmalar ko'plab xodimlar tomonidan yetarlicha egallanmagan. Bu esa xizmatlar sifati va mijozlarning qoniqish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, logistika va mahsulot yetkazib berish tizimining barqaror emasligi, ayniqsa mahalliy ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan-to'g'ri xarid qilishdagi qiyinchiliklar mavjud. Ko'p hollarda, mehmonxonalar oraliq vositachilar xizmatidan foydalanishga majbur bo'ladi, bu esa mahsulot tannarxini oshiradi, sifatga salbiy ta'sir ko'rsatadi va xizmatlar rentabelligini pasaytiradi. Bundan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlarining kelib chiqishiga doir ma'lumotlarning shaffofligi, sertifikatlar mavjudligi va tekshiruv tizimlari zaif bo'lishi xavfsizlik jihatlarida muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Uchinchidan, raqobat muhitining kuchayishi fonida ko'plab mehmonxonalar xizmatlar spektrini kengaytira olmayapti, chunki bu yo'nalishda bozorni chuqur o'rganish, innovatsion g'oyalarni joriy etish, marketing strategiyasini yangilash va sodiq mijozlar bazasini shakllantirish kabi bosqichlar bo'yicha kompleks yondashuv yetishmayapti. Masalan, milliy va xalqaro mehmonlar uchun sog'lom ovqatlanish, vegetarian yoki halal menyularni taklif etish, bolalar va diabet kasalligiga chalinganlar uchun maxsus ovqatlar kiritish imkoniyatlaridan to'liq foydalanimayapti. Natijada, mehmonlarning ehtiyojlari to'liq qondirilmaydi, bu esa mijoz sodiqligi va mehmonxona obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, pandemiyadan keyingi davrda mijozlarning gigiyena, sanitariya va oziq-ovqat xavfsizligiga bo'lgan talablari keskin oshgan. Biroq barcha mehmonxonalar bu talablarni to'liq darajada qamrab ololmayapti. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sharoitlari, tayyorlash jarayonidagi sanitariya standartlari, xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tish chastotasi, foydalaniyatotgan texnik vositalarning zamonaviyligi masalalarida muvofiqlik darajasi turlicha. Shu sababli, ovqatlantirish xizmatlari sifati barcha darajadagi mehmonxonalar uchun bir xil emas, bu esa turistik tajriba sifatining notekis bo'lismiga olib keladi.

Ushbu muammolarning yechimi ko'p qirrali va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Avvalo, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish uchun kasb-hunar kollejлari, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalari bazasida mehmonxona gastronomiyasi yo'nalishini kuchaytirish zarur. Bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham chuqurlashtiruvchi o'quv dasturlari, xalqaro oshpazlik maktablar bilan hamkorlikda seminar va stajirovkalarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, sertifikatlashtirish tizimini kuchaytirish, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi, xizmat ko'rsatish sifati, gigiyena va ekologik barqarorlikka doir xalqaro standartlarni joriy etish mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Mahsulot yetkazib berish tizimini takomillashtirish maqsadida, mehmonxonalar mahalliy fermerlar, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri va uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'nga qo'yishlari kerak. Bu esa narxlarning barqarorligi, sifat kafolatining mustahkamlanishi va ekologik izni (carbon footprint) kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy IT yechimlar, masalan, ta'minot zanjiri boshqaruvi tizimlari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob va onlayn kuzatuv dasturlari bu jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Mijozlar ehtiyojlarini tahlil qilish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va xizmat turlarini diversifikasiya qilish orqali mehmonxona ovqatlanish xizmatlarini transformatsiya qilish zarur. Bu borada so'rovnama, baholash tizimlari, onlayn reyting va fikr-mulohazalarni tahlil qilish orqali mijoz kutganlarini aniqlash mumkin. Sog'lom ovqatlanish, shaxsiy menyular, tezkor xizmat ko'rsatish, milliy taomlar festivali, oshpazlik master-klasslari kabi xizmatlarni joriy etish orqali mehmonxonaning brend qadriyati mustahkamlanadi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilgan holda, bir martalik plastik idishlardan voz kechish, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, ortiqcha mahsulotlarni xayriya yo'nalishida taqsimlash kabi tashabbuslar ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi va mehmonlar orasida ijobiy imij shakllantiradi (1-jadval).



1-jadval. 2023-yilda O'zbekistonda mehmonxona va ovqatlantirish xizmatlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar².

Ko'rsatkichlar	Miqdor	Izoh
Umumiy xizmatlar hajmi	18,3 trillion so'm	2022-yilga nisbatan 12,6% o'sish
Ovqat va ichimliklar xizmatlari ulushi	79,6%	Yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiy hajmida
Eng yuqori o'sish sur'ati	+30,9%	Samarqand viloyati
Eng past o'sish sur'ati	+2,2%	Navoiy viloyati
Yangi tashkil etilgan korxonalar soni	4 963 ta	Mehmonxona va ovqatlantirish xizmatlari sohasida

2023-yilda ushbu soha umumiy xizmatlar hajmi bo'yicha 18,3 trillion so'mlik natijaga erishdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 12,6 foizlik o'sishni anglatadi va soha jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Demak, xizmatlar sektorida aynan yashash va ovqatlanish xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Tahlillarga ko'ra, umumiy xizmatlar hajmida ovqat va ichimliklar bilan bog'liq xizmatlarning ulushi 79,6 foizni tashkil qilmoqda. Bu shuni anglatadiki, mehmonxona infratuzilmasining asosiy daromad manbai aynan ovqatlantirish xizmatlariga to'g'ri kelmoqda. Bu holat gastronomik xizmatlarning mehmonlar uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lib borayotganidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida esa sezilarli tafovutlar mavjud. Masalan, Samarqand viloyatida 30,9 foizlik o'sish kuzatilgan bo'lib, bu hududda turizm infratuzilmasining faol rivojlanayotgani va xalqaro sayyoohlar oqimining ortgani bilan bog'liq. Aksincha, Navoiy viloyatida o'sish atigi 2,2 foizni tashkil qilgan bo'lib, bu hududda xizmatlar sektorining sust rivojlanayotgani yoki mahalliy ehtiyojning cheklanganligi ehtimolini bildiradi.

Shuningdek, 2023-yil davomida mehmonxona va ovqatlantirish xizmatlari bo'yicha 4963 ta yangi korxona tashkil etilgan. Bu esa nafaqat sohaga bo'lgan talab ortayotganini, balki biznes yuritish uchun qulay muhit shakllanayotganini ham ko'rsatadi. Bu tendensiya sektorning bandlik yaratish va mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi rolini oshirib bormoqda.

Umuman olganda, bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda ovqatlantirish xizmatlarining jadal rivojlanayotganini, ayniqsa turizm markazlari joylashgan hududlarda faol investitsiya va innovatsiyalar talab qilinayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, regional nomutanosibliklar, sifatli kadrlar ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalarga e'tibor kuchaytirilishi lozim. Bu esa kelgusida sohaning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlari turizm sohasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida mijozlar ehtiyojini qondirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va xizmatlar sifati orqali brend obro'sini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi global va mintaqaviy tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, mehmonxona ovqatlanish xizmatlari faqatgina gastronomik ehtiyojni qondirish vositasi emas, balki madaniy, ekologik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi vosita sifatida ham qaralmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu yo'nalishda professional kadrlar yetishmovchiligi, zamonaviy texnologiyalarning to'liq joriy etilmagani, logistika muammolari va oziq-ovqat xavfsizligiga doir talablarning sust bajarilishi kabi qator muammolar mavjud.

Sohani rivojlantirish uchun birinchi navbatda mehmonxona ovqatlanish xizmatlarida ishlovchi xodimlar malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Mahalliy oshxona an'analarini saqlagan holda global gastronomik tendensiyalarni integratsiya qilish, menu tarkibini sog'lom ovqatlanish standartlariga muvofiqlashtirish, allergenlarga doir axborotlarning ochiqligini ta'minlash va ekologik toza mahsulotlardan foydalanish mehmonlar ehtiyojini qondirishda ijobjiy natija beradi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan barqaror hamkorlikni yo'nga qo'yish orqali taomlar tannarxini pasaytirish, yetkazib berish zanjirlarini qisqartirish va mahsulot sifati ustidan nazoratni kuchaytirish mumkin. Raqamli texnologiyalar, masalan, menyularni QR-kod orqali ko'rish, onlayn buyurtmalar va avtomatlashtirilgan hisobkitob tizimlarini keng joriy etish esa xizmat ko'rsatish tezligi va shaffofigini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat siyosati darajasida esa mehmonxonalar uchun oziq-ovqat sohasidagi sanitariya, sertifikatlashtirish va ekologik standartlarga mos xizmatlar ko'rsatishga rag'batlantiruvchi mechanizmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqliр. Shu orqali nafaqat mehmonlar ehtiyoji to'liq qondiriladi, balki mamlakatning turizm jozibadorligi oshib, mehmonxona sektorining iqtisodiy samaradorligi va barqarorligi ta'minlanadi.

2 [https://www.stat.uz/en/press-center/news-of-committee/47590-oziq-ovqat-va-ichimliklар-bilan-ta-minlash-bo-yicha-xizmatlar-hajmi-6](https://www.stat.uz/en/press-center/news-of-committee/47590-oziq-ovqat-va-ichimliklار-bilan-ta-minlash-bo-yicha-xizmatlar-hajmi-6)

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Л.С. Волкова. Организация питания в гостиничном бизнесе. – М.: Академия, 2018. – 296 с.
2. Philip Kotler, John T. Bowen. Marketing for Hospitality and Tourism. – Pearson Education, 2017. – 720 p.
3. Barbara Alman. Hospitality Management and Food Service Strategy. – McGraw-Hill, 2015. – 380 p.
4. John Horner, Susan Swarbrooke. Consumer Behaviour in Tourism. – Routledge, 2016. – 432 p.
5. Alain Ducasse. The Taste of France. – Stewart, Tabori & Chang, 2014. – 320 p.
6. OECD. Trends in the Food Service Industry: Sustainability and Digitalization. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 198 p.
7. UNWTO. Global Report on Food Tourism. – Madrid: UNWTO, 2017. – 142 p.
8. Annika Hellström. Food Quality in EU Hotel Industry: Guest Expectations and Environmental Aspects. – European Food Journal, 2021. – №2. – p. 85–103.
9. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 378–386. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1312>.
10. Mirzayev Q.D. va boshq. (2017) Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etishning muhim xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, 6 b.
11. Muxitdinov X. S, Rahimov A. M. (2021) Providing Accommodation and Food Services to the Population of the Region.// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) (e-ISSN: 2456 – 6470), Volume 1, Issue 1, mart.26, Pages:42-48, ISO 90012015 1121105553, IMPACT FACTOR-2021: 7.251.
12. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. Journal of Critical Review, 7(15), 1679-1684.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

